

SPORT TRANSFERLARI TARTIBOTINING TARIXIY RIVOJLANISHI

Norqobilov Dilshod Boyqobil o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi.

+99890-331-16-62 Dilshodnorqobil@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15661341>

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional sportdagi sport transferi tushunchasining nazariy asoslari, tarixiy rivojlanishi, huquqiy va iqtisodiy jihatlar hamda zamonaviy tendensiyalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi sport transferi tizimining ko'p qirrali tabiatini ochib berish va uning professional sport industriyasidagi o'rnini aniqlashdan iborat. Maqolada sport transferining kontseptual asoslari, uning asosiy elementlari va funksiyalari ko'rib chiqilgan. Transfer tizimining XIX asr oxiridan to zamonaviy davrgacha bo'lgan evolyutsiyasi, xususan, 1995-yildagi Bosman ishi va uning oqibatlarini tahlil qilingan.

Zamonaviy tendensiyalar sifatida transfer to'lovlarining o'sishi, vositachilarning roli va texnologiyalarning qo'llanilishi ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari sport transferi tizimining doimiy evolyutsiyada ekanligini va kelajakda yanada shaffoflashishi, raqamlashishi hamda standartlashishi kutilayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston sport industriyasi uchun xalqaro tajribani o'rganish va milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: sport transferi, professional sport, transfer tizimi, sport huquqi, transfer to'lovi, FIFA RSTP, Bosman ishi, sport iqtisodiyoti, transfer bozori, sport menejment.

Professional sport sohasida sportchilarning bir klubdan ikkinchisiga o'tish jarayoni murakkab huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Sport transferlari tizimi o'zining shakllanish tarixida ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechirgan bo'lib, bugungi kunda global sport industriyasining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Zamonaviy transfer bozori yiliga o'n milliardlab dollarlik aylanmaga ega bo'lib, ming-minglab sportchilar, klublar, agentlar va boshqa manfaatdor tomonlarning faoliyatini o'z ichiga oladi.

Transfer tizimining tarixiy tahlili nafaqat o'tmishni o'rganish, balki kelajak tendensiyalarini bashorat qilish uchun ham muhim asos yaratadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Britaniya orollarida boshlangan bu jarayon bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan murakkab tizimga aylandi. Har bir tarixiy davr o'zining o'ziga xos xususiyatlari, muammolari va yechimlarini taqdim etgan.

Sport transferlari tarixini to'g'ri tushunish uchun avvalo professional sportning paydo bo'lish sharoitlarini ko'rib chiqish zarur. XIX asrning o'rtalariga qadar sport asosan havaskorlik faoliyati sifatida qaralgan va sportchilarning pul mukofotlari olishi qoralangan. Ammo sanoat inqilobi va urbanizatsiya jarayonlari sport madaniyatining o'zgarishiga olib keldi [1].

Angliyada 1860-70-yillarda futbol klublari tashkil etila boshlandi va ular o'rtasidagi raqobat kuchayib bordi. Shimoliy Angliyaning sanoat shaharlarida joylashgan klublar eng yaxshi o'yinchilarni jalb qilish uchun ularga yashirin ravishda pul to'lay boshladilar. Bu amaliyot shamanizm deb atalgan va rasmiy ravishda taqiqlangan bo'lsa-da, o'sha kezlarda keng tarqalgan edi. Bunga misol qilib, Preston North End, Blackburn Rovers kabi klublar Shotlandiyadan iste'dodli o'yinchilarni olib kelish uchun ularga ish joylari va qo'shimcha to'lovlar taklif qilganini ko'rishimiz mumkin.

1885-yil 20-iyulda Angliya Futbol Assotsiatsiyasi tarixiy qaror qabul qildi va professionalizm rasman ruxsat etildi.

Birmingem shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishda 33 ovozdin 28 tasi professionalizmni qo'llab-quvvatladi va bu sport tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi.

Bu qaror sport tarixidagi buriilish nuqtasi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi, negaki u sportchilarning mehnat huquqlarini tan oldi va transfer tizimining huquqiy asoslarini yaratdi.

Professionalizmning tan olinishi darhol transfer bozorining shakllanishiga olib keldi.

Klublar endi ochiqdan-ochiq o'yinchilar uchun pul to'lashi va ularni shartnoma asosida ishga olishi mumkin edi. Dastlabki shartnomalar oddiy edi va asosan maosh miqdori, o'yin bonuslari va ish muddatini belgilab bergan edi. O'yinchilar huquqlari juda cheklangan bo'lib, ular klub rahbariyatining qarorlariga bo'ysunishga majbur edilar.

1893-yilda Angliya Futbol Ligasi inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan sportchilarni jamoada saqlab qolish va transfer tizimini joriy etdi. Bu tizimning mohiyati shundan iborat ediki, klub o'yinchini shartnoma muddati tugaganidan keyin ham o'z ro'yxatida saqlab qolishi mumkin edi.

O'yinchi faqat klubning roziligini olgandan keyingina boshqa jamoaga o'tishi mumkin edi [2].

Bu tizim klublar manfaatlarini himoya qilish uchun yaratilgan bo'lib, o'yinchilar pozitsiyasini sezilarli darajada zaiflashtirdi. Agar klub o'yinchini ro'yxatda qoldirsa, u boshqa klubda o'ynash huquqiga ega emas edi, hatto unga hech qanday maosh taklif qilinmasa ham. Bu holatda o'yinchi yo klubning shartlarini qabul qilishi yoki futbolni butunlay tark etishi kerak edi [3].

Saqlab qolish tizimi tez orada suiiste'molliklarga olib keldi. Klublar o'yinchilarni bosim o'tkazish vositasi sifatida ishlatdilar va ularning maoshlarini sun'iy ravishda past darajada ushlab turdilar. 1909-yilda Angliya Futbol Assotsiatsiyasi maksimal haftalik maosh chegarasini 4 funt sterling deb belgiladi, bu o'sha davr uchun o'rtacha ish haqi edi. Bu cheklash 1920-yilda 8 funtga, 1947-yilda 12 funtga va 1958-yilda 20 funtga oshirildi.

Transfer to'lovlari tushunchasi ham shu davrda shakllandi. Klublar o'yinchi shartnomasi davomida uni boshqa klubga sotishi mumkin edi, ammo o'yinchining o'zi bu jarayonda hech qanday so'z huquqiga ega emas edi. 1905-yilda Alf Common Sunderland klubidan Middlesbrough klubiga 1000 funt sterlingga sotildi - bu birinchi to'rt xonali transfer summasi edi va katta shov-shuvga sabab bo'ldi [4].

XX asrning birinchi choragida transfer bozori asta-sekin rivojlanib bordi. Birinchi jahon urushi transfer faoliyatini to'xtatdi, ammo urushdan keyingi yillarda bozor yanada faollashdi. 1920-yillarda futbol Angliyada eng ommabop sport turiga aylandi va klublar daromadlari sezilarli darajada oshdi. Bu o'z navbatida transfer summalarining o'sishiga olib keldi.

1922-yilda Syd Puddefoot West Ham United klubidan Falkirk klubiga 5000 funt sterlingga sotildi va yangi rekord o'rnatdi. Bu summa o'sha davr uchun juda katta edi, ya'ni bu futbolchining maoshi oddiy ishchining 50 yillik maoshiga teng edi. Matbuot va jamoatchilik bunday katta summalarni tanqid qildi, ammo transfer bozori rivojlanishda davom etdi [5].

1920-30-yillarda xalqaro transferlar ham rivojlana boshladi. Janubiy Amerika o'yinchilari, ayniqsa argentinaliklar va urugvayliklar Yevropa klublariga o'ta boshladilar. 1930-yilda Raimundo Orsi Argentina terma jamoasida jahon chempioni bo'lganidan keyin Juventus klubiga o'tdi. Italiya klublari oriundi siyosatini olib bordilar ya'ni, italyan kelib chiqishiga ega janubiy amerikalik o'yinchilarni jalb qildilar.

1930-40-yillarda transfer tizimining huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Milliy futbol assotsiatsiyalari o'z reglamentlarini ishlab chiqdilar va transfer jarayonlarini batafsil

tartibga soldilar. FIFA 1932-yilda xalqaro transferlar bo'yicha birinchi qoidalarini qabul qildi, ammo ular juda umumiy xarakterda edi.

Ikkinchi jahon urushi transfer bozorini yana to'xtatdi, ammo urushdan keyingi tiklanish davri yangi imkoniyatlar yaratdi. 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshida Yevropa futboli qayta tiklandi va transfer faoliyati yangi sur'atlarga erishdi.

1950-yillarda Janubiy Amerika o'yinchilari oqimi kuchaydi. 1953-yilda Juan Alberto Schiaffino Urugvay terma jamoasi safida jahon chempioni bo'lganidan keyin Milan klubiga 72,000 funt sterlingga o'tdi - bu o'sha paytdagi jahon rekordi edi. Italiya Serie A ligasi eng boy liga sifatida tanildi va eng yaxshi o'yinchilarni jalb qildi.

Transfer tizimidagi muhim o'zgarish 1961-yilda Angliyada sodir bo'ldi. Professional futbolchilar uyushmasi rahbari Jimmy Hill boshchiligidagi o'yinchilar maksimal maosh chegarasini bekor qilish uchun ish tashlash bilan tahdid qildilar. 1961-yil yanvar oyida Futbol Liga taslim bo'ldi va maksimal maosh chegarasi bekor qilindi. Bu voqea o'yinchilar huquqlarining kengayishida muhim qadam bo'ldi.

Maksimal maosh chegarasining bekor qilinishi transfer bozorida inqilobga olib keldi. O'yinchilar maoshlari keskin oshdi va klublar eng yaxshi iste'dodlar uchun raqobatlasha boshladilar. Buning natijasida, 1962-yilda Denis Law Manchester City klubidan Torino klubiga 115,000 funt sterlingga sotildi va Britaniya o'yinchisi uchun yangi rekord o'rnatdi [6].

1960-yillarda transfer tizimining xalqaro tartibga solinishi kuchaydi. FIFA 1964-yilda yangi transfer reglamentini qabul qildi, u xalqaro transferlarning batafsil tartibini belgilab berdi. Reglamentga ko'ra, o'yinchi bir mamlakatdan ikkinchisiga o'tishi uchun ikkala milliy assotsiatsiyaning roziligini olishi kerak edi. Shuning uchun ham Xalqaro transfer sertifikatini tizimi joriy etildi.

Bu davrda agentlarning roli ham shakllana boshladi. Dastlab o'yinchilar vakillari norasmiy maslahatchilar sifatida faoliyat yuritdilar, ammo asta-sekin ular professional vositachilarga aylandi. 1960-yillarning oxirida birinchi professional futbol agentlari paydo bo'ldi, garchi ularning faoliyati hali tartibga solinmagan edi [7].

1980-yillar transfer bozorining globallashuvini ko'rsatdi. Diego Maradona 1982-yilda Barcelona klubiga 3 million funt sterlingga, 1984-yilda esa Napoli klubiga 5 million funt sterlingga sotildi. Bu transferlar yangi davrning boshlanishini ko'rsatdi - endi futbol yulduzlari kino yulduzlari kabi mashhurlikka erishdilar [8].

Bu davrda transfer tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilar edi:

Birinchiidan, o'yinchilar shartnoma muddati tugaganidan keyin ham klubning mulki hisoblanardi.

Ikkinchiidan, o'yinchi yangi klubga o'tishi uchun avvalgi klubining roziligini olishi shart edi.

Uchinchiidan, transfer summolari doimiy ravishda o'sib bordi, ammo o'yinchilarning o'zlari bu summalardan foyda ko'rmadilar.

1990-yillarning boshida transfer tizimiga nisbatan tanqidlar kuchaydi. Yevropa Ittifoqi huquqi o'yinchilar erkin harakatlanish huquqini kafolatlagan, ammo futbol transfer tizimi bu huquqni cheklagan. O'yinchilar uyushmalari va huquqshunoslar mavjud tizimni Yevropa qonunchiligiga zid deb hisoblashdi. [9]

Transfer tizimidagi boshqa muammo yosh o'yinchilarni ekspluatatsiya qilish edi. Klublar 16-17 yoshli iste'dodlarni arzon narxda sotib olish va keyinchalik qimmatga sotish strategiyasini

qo'lladilar. Afrika va Janubiy Amerika mamlakatlaridan kelgan yosh o'yinchilar ko'pincha aldanib, yomon sharoitlarda yashashga majbur bo'ldilar.

1995-yil 15-dekabrda Yevropa Adliya Sudi tarixiy Bosman qarorini e'lon qildi.

Belgiyalik futbolchi Jan-Mark Bosman o'z klubi RFC Liege bilan shartnomasini tugatganidan keyin Fransiyaning Dunkerque klubiga bepul o'tishni xohlagan edi. Ammo Liege klubi transfer to'lovini talab qildi va Bosman o'tishiga to'sqinlik qildi [10].

Bosman sudga murojaat qildi va uning ishi Yevropa Adliya Sudiga yetib bordi. Sud qarori ikki asosiy nuqtani o'z ichiga oldi. Birinchidan, Yevropa Ittifoqi fuqarosi bo'lgan o'yinchi shartnoma muddati tugaganidan keyin boshqa Yevropa Ittifoqi mamlakatidagi klubga bepul o'tish huquqiga ega. Ikkinchidan, milliy assotsiatsiyalar chet ellik o'yinchilar sonini cheklovchi kvotalarni qo'llashi mumkin emas [11].

Bosman qarori transfer tizimini tubdan o'zgartirdi. O'yinchilar shartnoma muddati tugaganidan keyin erkin agent bo'lib qoldilar va o'z kelajagini mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu o'yinchilar maoshlarining keskin oshishiga olib keldi, chunki klublar endi transfer to'lovlariga sarflanadigan pulni o'yinchilar maoshiga yo'naltira boshladilar.

Klublar Bosman qaroriga turlicha javob berishdi. Ba'zilar uzoq muddatli shartnomalar tuzish orqali o'yinchilarni ushlab qolishga harakat qildilar. Boshqalari esa yoshlarni tayyorlashga ko'proq e'tibor berishdi. Transfer strategiyalari o'zgardi - klublar endi shartnoma muddati tugashiga oz qolgan o'yinchilarni arzon narxda sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

2001-yilda FIFA Bosman qaroridan keyingi vaziyatni hisobga olgan holda yangi Transfer reglamentini qabul qildi. Yangi qoidalar o'yinchilar huquqlarini himoya qilish bilan birga, klublar va milliy assotsiatsiyalar manfaatlarini ham hisobga olishga harakat qildi. Reglament shartnomalarning barqarorligini ta'minlash, yosh o'yinchilarni himoya qilish va transfer jarayonining shaffofligini oshirish mexanizmlarini o'z ichiga oldi [12].

2000-yillarning boshida transfer bozori misli ko'rilmagan sur'atlarda o'sdi. 2001-yilda Zinedine Zidane Juventus klubidan Real Madrid klubiga 77,5 million evroga o'tdi va yangi jahon rekordi o'rnatdi [13]. Bu transfer yangi davrning boshlanishini ko'rsatdi ya'nikim, Galaktikos davri, bunda klublar marketing va tijorat maqsadlarida super yulduzlarni sotib oldilar.

2000-yillarning o'rtalaridan boshlab transfer bozori haqiqiy global xarakter kasb etdi. Xitoy, Amerika Qo'shma shtatlari, Yaponiya, Avstraliya va Yaqin Sharq mamlakatlari faol ishtirokchilar bo'lib qoldilar. Yangi bozorlar ochilishi an'anaviy Yevropa klublarining monopoliyasiga tahdid soldi [14].

Xitoyning transfer bozorga kirishi ayniqsa dramatik bo'ldi. 2010-yillarning o'rtalarida Xitoy Super Ligasi klublari Yevropa yulduzlarini jalb qilish uchun katta summalar sarfladi. Bunga misol qilib, 2016-yilda Shanghai SIPG Oscar uchun Chelsea klubiga 60 million yevro to'ladi [15]. Xitoy klublari yuqori maoshlar taklif qilish orqali taniqli o'yinchilarni jalb qildilar, ammo bu siyosat uzoqqa bormadi va 2017-yilda Xitoy hukumati cheklovlar kiritdi [16].

Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan BAA va Qatar ham transfer bozorida faollashdi. Ular nafaqat o'yinchilarni jalb qilish, balki butun klublarni sotib olish orqali sport siyosatini olib bordilar. Manchester City va PSG klublari Yaqin Sharq investorlari tomonidan sotib olinganidan keyin transfer bozorining eng faol ishtirokchilariga aylandi [17].

Transfer bozori nafaqat klublar va o'yinchilar uchun, balki butun iqtisodiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega. CIES Football Observatory ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global transfer bozorining hajmi 7.33 milliard dollarga yetdi. Bu raqam faqat transfer to'lovlarini o'z ichiga oladi va maoshlar, agentlik to'lovlari va boshqa xarajatlarni hisobga olmaydi [18].

Transfer industriyasi minglab ish o'rinlarini yaratadi. Agentlar, skautlar, huquqshunoslar, moliya mutaxassislari, media xodimlari va boshqa ko'plab mutaxassislar bu sohada ishlaydi.

Transfer faoliyati shaharlar va mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Cristiano Ronaldoning Juventusga o'tishi Turin shahrining turizm sektoriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi [19].

Transfer bozori klublarning moliyaviy strategiyasining asosiy qismiga aylandi. Ba'zi klublar trading club modelini qo'llaydi - ular yosh o'yinchilarni rivojlantirish va sotish orqali daromad olishadi. Benfica, Porto, Ajax, Borussia Dortmund kabi klublar bu strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Transfer inflyatsiyasi ham muhim iqtisodiy hodisa hisoblanadi. O'yinchilar narxi yildan-yilga o'sib bormoqda va bu tendentsiya davom etmoqda. 2017-yilda Neymarning PSGga 222 million yevro evaziga o'tishi bozorni silkitdi va narxlar yangi darajaga ko'tarildi [20].

Zamonaviy transfer tizimi ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Moliyaviy adolatsizlik eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Boy klublar bozorni monopoliyalashmoqda va kichik klublar raqobatda qolishga qiynalmoqda. UEFA Financial Fair Play qoidalarini joriy etdi, ammo ularning samaradorligi munozarali bo'lib qolmoqda [21].

Agentlar faoliyatini tartibga solish ham muhim masala bo'lib qolmoqda. FIFA ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda agentlarga to'langan komissiyalar 700 million dollardan oshdi.

Ba'zi agentlar o'yinchilar va klublar manfaatlariga zid harakat qilish, sun'iy ravishda narxlarni oshirish va korrupsiyaga aralashishda ayblanmoqda.

Yosh o'yinchilarni himoya qilish masalasi alohida e'tibor talab qiladi. 18 yoshgacha bo'lgan o'yinchilarning xalqaro transferlari cheklangan, ammo klublar bu qoidalarini aylanib o'tish yo'llarini topmoqda. Afrika va Janubiy Amerikadan kelgan yosh iste'dodlar ko'pincha ekspluatatsiyaga uchraydi. FIFA va milliy federatsiyalar bu muammoni hal qilish uchun yanada qat'iy choralar ko'rishmoqda.

Transfer tizimining kelajagi texnologik innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Blokcheyn texnologiyasi transfer jarayonini yanada shaffof va xavfsiz qilishi mumkin. Ba'zi startaplar allaqachon blokcheyn asosida transfer platformalarini ishlab chiqmoqda. Bu texnologiya soxta hujjatlar va korrupsiyaga qarshi kurashda samarali vosita bo'lishi mumkin [22].

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari skautingda inqilob yaratishi mumkin. Klublar VR orqali o'yinchilarni baholash, ularning o'yin uslubini tahlil qilish va hatto virtual sinovlar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. VR texnologiyalari esa real vaqt rejimida o'yinchilar statistikasini ko'rsatishi mumkin.

Transfer tizimining huquqiy jihatdan tartibga solinishi murakkab va ko'p qatlamli jarayon hisoblanadi. Milliy qonunchilik, xalqaro sport huquqi, Yevropa Ittifoqi huquqi va mehnat qonunchiligi o'rtasidagi o'zaro ta'sir transfer mexanizmlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy transfer huquqining shakllanishida bir necha asosiy bosqichlarni ajratish mumkin.

Birinchi bosqich 1990-yillargacha davom etdi va milliy assotsiatsiyalar tomonidan avtonomlik tamoyili asosida tartibga solinish bilan xarakterlanadi. Bu davrda davlat organlari va xalqaro tashkilotlar sport munosabatlariga aralashmadilar. Transfer qoidalari asosan sport tashkilotlarining ichki hujjatlarida belgilanardi va mehnat qonunchiligi talablaridan ko'p jihatdan mustasno edi [23].

Ikkinchi bosqich Bosman qaroridan keyin boshlandi va Yevropa Ittifoqi huquqining sport sohasiga faol kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Yevropa Adliya Sudi bir qator muhim qarorlar qabul qildi, jumladan Kolpak [24], Simutenkov [25] va Bernard [26] ishlari bo'yicha. Bu qarorlar transfer tizimining Yevropa Ittifoqining asosiy erkinliklari - xizmatlar ko'rsatish erkinligi, ishchilarning erkin harakatlanishi va raqobat huquqi bilan muvofiqligini ta'minlash zarurligini ko'rsatdi [27].

Uchinchi bosqich 2010-yillardan boshlanadi va transfer tizimining globallashuvi hamda yangi texnologiyalarning kirib kelishi bilan bog'liq. Bu davrda transfer huquqining yangi yo'nalishlari shakllandi - raqamli huquqlar, ma'lumotlarni himoya qilish, sun'iy intellektidan foydalanish qoidalari va kriptovalyutalar bilan bog'liq masalalarni o'zichiga oldi. Transfer tizimi endi nafaqat an'anaviy huquqiy mexanizmlar, balki yangi texnologik yechimlar orqali ham tartibga solinmoqda.

Yuqoridagi holatlarni o'rganib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, Sport transferlari tartibotining tarixiy rivojlanishi sport industriyasining umumiy transformatsiyasini aks ettiradi.

XIX asr oxirida Angliyada boshlangan oddiy mehnat munosabatlaridan tortib, bugungi kunda milliardlab dollarlik global biznesga aylangan transfer tizimi uzoq va murakkab evolyutsiya yo'lini bosib o'tdi. Har bir tarixiy davr o'zining o'ziga xos xususiyatlari, muammolari va yechimlarini taqdim etdi.

Bosman qarori transfer tizimi tarixidagi eng muhim burilish nuqtasi bo'lib, o'yinchilar huquqlarining kengayishiga va bozor mexanizmlarining tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Zamonaviy transfer tizimi murakkab huquqiy, iqtisodiy va texnologik infratuzilmaga ega bo'lib, doimiy takomillashish va adaptatsiya jarayonida. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi innovatsiyalar transfer jarayonini yanada samarali va shaffof qilish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Transfer tizimining kelajagi global sport industriyasining rivojlanish tendentsiyalari bilan chambarchas bog'liq. Barqarorlik, inklyuzivlik va innovatsiya tamoyillari transfer mexanizmlarining evolyutsiyasini belgilab beradi. Transfer tizimi sport raqobatining adolatliligini ta'minlash, o'yinchilar huquqlarini himoya qilish va klublarning moliyaviy barqarorligini saqlash o'rtasida muvozanat izlashda davom etadi.

REFERENCES

1. Taylor, M. (2008). The Association Game: A History of British Football (1st ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315836171> [accessed on: 05.06.2025]
2. Harding, John. For the Good of the Game: The Official History of the Professional Footballers' Association. London: Robson Books, 1991. 201-223 b.
3. Carter, Neil. The Football Manager: A History. London: Routledge, 2006. 78-100 bet. // Available at: <https://www.routledge.com/The-Football-Manager-A-History/Carter/p/book/9780415375399?srsId=AfmBOoo855sxwYJFUdWS5ZHr7yqmZoHlBBlfeMS911ZyEyD2Z3Uzy7qv> [accessed on: 05.06.2025]
4. Goldblatt, David. The Ball is Round: A Global History of Football. London: Penguin, 2007. 234-256 bet. // Available at: https://www.monash.edu/data/assets/pdf_file/0003/1669404/grant-review2.pdf [accessed on: 05.06.2025]
5. Fishwick, Nicholas. English Football and Society 1910-1950. Manchester: Manchester University Press, 1989. 167-189 b. // Available at:

- https://books.google.co.uz/books/about/English_Football_and_Society_1910_1950.html?id=XVqBAAAAMAAJ&redir_esc=y [accessed on: 05.06.2025]
6. Cashmore, Ellis. Making Sense of Sports. London: Routledge, ISBN 9780415552219 1 B/W Illustrations Published September 10, 2010 2010. 289-311 // Available at: <https://www.routledge.com/Making-Sense-of-Sports/Cashmore-Cashmore/p/book/9780415552219?srsId=AfmBOoqw314sVla1tGgLt8AYUhlavripQj6PnNirqU8bRKWm3JKOT3L9> [accessed on: 05.06.2025]
7. Roderick, Martin. The Work of Professional Football: A Labour of Love? London: Routledge, 2006. 156-178 // Available at: https://www.researchgate.net/publication/30051328_The_Work_of_Professional_Football_1_A_Labour_of_Love [accessed on: 05.06.2025]
8. Burns, Jimmy. Hand of God: The Life of Diego Maradona. London: Bloomsbury, 1996. 234-256
9. Richard Parrish, Sports law and policy in the European Union, European Policy Research Unit Series // Available at: <https://library.oapen.org/bitstream/id/2cf8ea42-17fc-45f3-80e3-7c02426c417e/341375.pdf> [accessed on: 05.06.2025]
10. Weatherill, Stephen. Bosman Changed Everything: The Rise of EC Law in Sport. European Law Review 21, no. 5 (1996): 367-380.
11. Morris, Philip. The Bosman Case: Its Impact on Football. European Competition Law Review 17, no. 8 (1996): 518-521.
12. Christina Lembo, FIFA Transfer Regulations and UEFA Player Eligibility Rules: Major Changes in European Football and the Negative Effect on Minors, 25 Emory Int'l L. Rev. 539 (2011). Available at: <https://scholarlycommons.law.emory.edu/eilr/vol25/iss1/12> [accessed on: 05.06.2025]
13. Zinédine Zidane, Transfer history // Available at: <https://www.transfermarkt.com/zinedine-zidane/transfers/spieler/3111> [accessed on: 05.06.2025]
14. Andreff, Wladimir. (2008). Globalisation of the sports economy, Rivista di diritto ed Economia dello Sport, vol. IV, fasc. 3, 2008, pp. 13-32. Rivista di diritto ed Economia dello Sport. 4. 13-32. // Available at: https://www.researchgate.net/publication/278785718_Globalisation_of_the_sports_economy_Rivista_di_diritto_ed_Economia_dello_Sport_vol_IV_fasc_3_2008_pp_13-32 [accessed on: 05.06.2025]
15. Chelsea midfielder Oscar sold to Shanghai SIPG for 60 million pounds // Available at: https://www.chinadaily.com.cn/sports/2016-12/23/content_27759380.htm [accessed on: 05.06.2025]
16. Chadwick, Simon. (2018). Routledge Handbook of Football Business and Management. 10.4324/9781351262804.
17. Dorsey, James. (2017). The Turbulent World of Middle East Soccer. The Turbulent World of Middle East Socce // Available at: https://www.researchgate.net/publication/316349535_The_Turbulent_World_of_Middle_East_Soccer [accessed on: 05.06.2025]
18. Global economic analysis of the transfer market (2015-2024) // Available at: <https://football-observatory.com/MonthlyReport97> [accessed on: 05.06.2025]

19. Sports (and) economics, FUNCAS Social and Economic Studies, 7, Madrid, Spain, 296-p. // Available at: <https://www.funcas.es/wp-content/uploads/Migracion/Publicaciones/PDF/2163.pdf> [accessed on: 05.06.2025]
20. Neymar: how the record-breaking €222m move to PSG unfolded, Julien Laurens Fri 4 Aug 2017 // Available at: <https://www.theguardian.com/football/2017/aug/04/neymar-how-record-breaking-move-to-psg-unfolded> [accessed on: 05.06.2025]
21. Morrow, Stephen. (2014). Financial Fair Play: Implications for football club financial reporting. // Available at: https://www.researchgate.net/publication/267009225_Financial_Fair_Play_Implications_for_football_club_financial_reporting [accessed on: 05.06.2025]
22. Kashyap, Babhuti & Chowdhury, Sunanda. (2024). Blockchain technology in sports: enhancing athlete mental and cognitive performance tracking. Public Administration and Law Review. 73-81. 10.36690/2674-5216-2024-4-73-81. // Available at: https://www.researchgate.net/publication/387530871_blockchain_technology_in_sports_enhancing_athlete_mental_and_cognitive_performance_tracking [accessed on: 05.06.2025]
23. Foster, Ken. (2012). Is There a Global Sports Law?. 10.1007/978-90-6704-829-3_2. // Available at: https://www.researchgate.net/publication/251276514_Is_There_a_Global_Sports_Law/citation/download [accessed on: 05.06.2025]
24. Case C-438/00Deutscher Handballbund eV v Markos Kolpak // Available at: <https://eur-lex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=CELEX:62000CJ0438:EN:HTML> [accessed on: 05.06.2025]
25. Judgment of the Court (Grand Chamber) of 12 April 2005. Igor Simutenkov v Ministerio de Educación y Cultura and Real Federación Española de Fútbol. Reference for a preliminary ruling: Audiencia Nacional - Spain. Communities-Russia Partnership Agreement - Article 23(1) - Direct effect - Conditions relating to employment - Principle of non-discrimination - Football - Limit on the number of professional players having the nationality of non-member countries who may appear on a team in a national competition. Case C-265/03.// Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex:62003CJ0265> [accessed on: 05.06.2025]
26. Judgment of the Court (Grand Chamber) of 16 March 2010. Olympique Lyonnais SASP v Olivier Bernard and Newcastle UFC. Reference for a preliminary ruling: Cour de cassation - France. Article 39 EC - Freedom of movement for workers - Restriction - Professional football players - Obligation to sign the first professional contract with the club which provided the training - Player ordered to pay damages for infringement of that obligation - Justification - Objective of encouraging the recruitment and training of young professional players. Case C-325/08. // Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex:62008CJ0325> [accessed on: 05.06.2025]
27. Parrish, Richard. (2018). Sports law and policy in the European Union. 10.7765/9781526137661. // Available at: https://www.researchgate.net/publication/327127566_Sports_law_and_policy_in_the_European_Union [accessed on: 05.06.2025]